

JADIDLARNING YANGI USLUBDA O‘QITISH METODLARI

Dilafruz Meliboyeva
Sodiqjon Meliboyev

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakatining ma’rifiy, madaniy va ta’limiy ahamiyati tahlil qilinadi. Ismoil G‘aspirinskiy asos solgan “usuli jadid” - tovush asosida o‘qitish metodikasi - musulmon dunyosida yangi davr ta’lim tizimini boshlab bergani, bu tajriba O‘rta Osiyoda ham keng tarqalganligi yoritiladi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarning maqsadi, o‘quv dasturlari, bosqichlari va ularning jamiyat ma’naviy hayotiga ko‘rsatgan ta’siri ilmiy asosda tahlil etilgan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid namoyandalarning milliy uyg‘onishdagi o‘rni hamda ularning yosh avlodni ma’rifat, tafakkur va Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qo‘shgan hissiy yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar Jadidchilik, Ismoil G‘aspirinskiy, usuli jadid, yangicha ta’lim tizimi, Turkiston ma’rifatparvarlari, jadid maktablari, milliy uyg‘onish, ma’naviy islohot, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, ma’rifat va ozodlik g‘oyasi.

KIRISH

XIX asrning 80-yillarida Qrimda yuzaga kelgan jadid ma’rifatparvarlik harakati turkiy xalqlarning madaniy va ta’limiy uyg‘onish davrini boshlab berdi. Uning asoschisi Ismoil Gaspirali (Gaspirinskiy) bo‘lib, u 1884-yilda o‘z maktabini tashkil etdi. G‘aspirinskiy o‘quv jarayoniga yangi yondashuv - “usuli savtiya”ni joriy etdi. Bu usulda harflarni tovush asosida o‘rgatish orqali 40 kun ichida 12 nafar o‘quvchining savodini chiqargan. Shu sababli bu ta’lim shakli “usuli jadid” - ya’ni “yangi usul maktabi” deb atalgan[1].

1890-yillardan boshlab bu harakat O‘rta Osiyo mamlakatlariga ham kirib keldi. Jadidlar dastlab madaniy sohada faoliyat yuritib, xalqni jaholatdan chiqarish, milliy o‘zlikni saqlash va zamonaviy fan-texnikani o‘zlashtirish g‘oyalarini ilgari surdilar. Ularning asosiy maqsadi millatni taraqqiyot sari yetaklash, xalqni ma’rifatli qilish, turkiy tillarni rivojlantirish, adabiyot va dunyoviy fanlarni ommalashtirish, shuningdek,

ayollar va erkaklar tengligini ta'minlash edi. Mazkur harakatning yetakchi namoyandalari - Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi ziyolilar xalqni o'qitish va tarbiyalash orqali jamiyatni yangilashga intildilar[2].

Ular zamonaviy maktablar ochish, darsliklar yozish, teatr, matbuot va orqali xalq ongini o'zgartirishga harakat qildilar. Jadidlar fikriga ko'ra jamiyat taraqqiyoti faqat siyosiy islohotlar bilan emas, balki ma'naviy-ma'rifiy uyg'onish bilan chambarchas bog'liq. Ular o'z shaxsiy manfaatlarini emas, balki millat va Vatan manfaatini ustun qo'yib, el-yurt ravnaqi uchun fidoyilik ko'rsatdilar. Ularning ezgu ishlari - yangi maktablar, gazetalar, teatrlar, ilm-ma'rifat targ'iboti - bugun ham millat xotirasida o'chmas iz qoldirgan tarixiy hodisadir[3].

ASOSIY QISM

Jadidlar ta'limoti o'z davrining eng ilg'or, progressiv qarashlariga asoslangan ma'rifiy harakat bo'lib, u nafaqat taraqqiyparvar ziyolilarni, balki zamonaviy fikrlaydigan yoshlarni ham o'z atrofiga birlashtira oldi. Jadidlar Turkiston mustaqilligiga erishish yo'lida millatni ma'naviy jihatdan uyg'otish, xalq tafakkurini o'zgartirish va yangi avlodni zamon talablariga mos tarbiyalashni bosh maqsad qilib qo'yganlar. Ular faoliyatida bir nechta yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usuldagi maktablarni ochish va tarmog'ini kengaytirish. Iqtidorli yoshlarni xorijda o'qitish. Ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalarini tashkil etib, gazeta hamda jurnallar nashr etish. Xalqning siyosiy ongini oshirish orqali milliy-demokratik jamiyat barpo etish. Bu yo'nalishlarning barchasi Turkistonni madaniy jihatdan mustaqil va taraqqiyparvar davlat sifatida shakllantirishga qaratilgan edi.

Sharqona ta'lim falsafasida **ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas tushuncha** hisoblanadi. Ma'naviyatni yuksaltirishda yosh avlod tarbiyasi hal qiluvchi omil bo'lib, bu masalaning dolzarbligi jadidlarning yetuk vakili **Abdulla Avloniy** asarlarida yaqqol ifoda etilgan. U "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida shunday yozadi: "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir. Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari, najotidir[4]."

Avloniyning ushbu fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U yoshlarning ma'naviy va axloqiy kamolotini millatning kelajagi bilan chambarchas

bogʻliq deb bilgan. Shu bois, Oʻzbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab taʼlim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylantirildi.

XX asrning boshlarigacha Turkiston hududidagi eski maktablarda bolalarni oʻqishga oʻrgatishda uchta asosiy usul qoʻllanilgan: usuli tahajji, usuli maddiya va usuli savtiya. Ularning orasida eng keng tarqalgani usuli tahajji (yoki usuli hijo) edi. Bu metod oʻrta asrlardan beri anʼanaviy diniy taʼlim muassasalarida qoʻllanilib kelgan boʻlib, oʻquvchilarning harflarni nomma-nom yodlashiga asoslangan. Gʻarb davlatlarida esa bu usul XVIII asr oxirlaridayoq eskirgan va samaradorligi pastligi sababli bekor qilingan.

Yangi usul maktablar faoliyati aniq dasturlar asosida tashkil etilgan. Unga koʻra, sinfdagi oʻquvchilar soni 30 nafardan oshmasligi lozim boʻlgan. Bolalarni maktabga faqat yilning ikki faslida - yoz va qish boshlarida qabul qilish tavsiya etilgan. Har yili nechta qabul boʻlishidan qatʼi nazar, oʻquvchilar birlashtirilgan sinf tizimida taʼlim olgan. Har bir muallim 3-4 ta sinf bilan shugʻullanishi mumkin boʻlgan. Agar maktab uch sinfdan iborat boʻlsa, darslar ketma-ketlik va uygʻunlik asosida tashkil etilishi lozim edi. 7-9 yoshli bolalar uchun 7-8 soat uzluksiz dars ogʻir hisoblangan, shu sababli kunlik oʻqish vaqti 5 soatdan oshmasligi kerakligi taʼkidlangan. Har bir darsdan soʻng 10 daqiqalik tanaffus belgilanishi, juma va bayram kunlari dam olish kuni sifatida eʼtirof etilishi zarur edi.

Oʻquv yili 10 oy davom etgan, yozning issiq kunlarida esa oʻquvchilarga taʼtil berish maqsadga muvofiq deb topilgan. Darslar oʻquvchini charchatmasligi, zerikarli boʻlmasligi, oʻqituvchi esa oʻz shogirdlariga nisbatan zoʻravonlik yoki haqoratli munosabatdan tiyilishi kerakligi qatʼiy belgilangan. Jadid pedagoglari fikricha, bola jismoniy jazoga emas, ragʻbat va tazkira orqali tarbiyalanishi kerak. Shu bois, har hafta oxirida oʻquvchining faoliyati haftalik tazkira (hisobot) shaklida baholanib, yaxshi oʻqiganlarga “ofarin” yozuvi bilan maqtov berilgan. Shuningdek, maktab binosi gigiyenik talablarga mos boʻlishi shart edi: xonalar yorugʻ, havo bilan toʻyingan, iliq va toza boʻlishi zarur. Sovuq va qorongʻu xonada dars oʻtish “ilm oʻrgatmoq emas, begunoh bolalarga jazo berishdir”, deb taʼkidlangan.

Eski usul taʼlim tizimi bilan birga, Turkiston ziyolilari, yaʼni jadidlar yangi usul jadid maktablarini ochib, taʼlim sohasida keng miqyosda faoliyat yuritganlar. Dastlabki

qadamni Ismoil Gaspirali qo‘ygan. U 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo‘lib, Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi. Bu maktab “Muzaffariya” nomi bilan ataladi. 1898-yilda To‘qmada (Qirg‘iziston) ham shunday maktab ochilgan. 1899-yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo‘qonda Saloxiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi jadid maktablarini tashkil qilganlar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar, jumladan, Saidrasul Aziziyning 1903-yilda yaratgan “Ustozi avval” Munavvarqorining “Adibi avval” (1907), va Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” (1912) darsliklari alohida e‘tiborga molikdir[5].

Yangicha o‘qitish usuli musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy va diniy ta’lim berish dasturi asosida amalga oshirildi. Ushbu dasturga ko‘ra, maktablarda ta’lim ikki bosqichga bo‘lingan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb ataladi va uning davomiyligi 4 yilni tashkil etadi. Ushbu bosqichni tugatgan o‘quvchilar eski maktabda 10 yil o‘qiganlardan yaxshiroq savodga ega bo‘lishgan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tamomlagan o‘quvchilar esa arabcha, forsha va turkiy tilda erkin so‘zlashib, rus tilida ham gaplasha olishgan[6]. Jadid taraqqiyparvarlari tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari eski maktablardan keskin farq qilar edi, chunki ularning darsxonalarida parta, doska, stol va stullar mavjud bo‘lgan. Mazkur maktablar o‘qitish uslublari bilan farqlanib, “usuli savtiya” ya’ni tovush usulidan foydalanishgan va o‘qish va yozish birga o‘rgatilgan. Shuningdek, yangi maktablarda arifmetika, tabiatshunoslik, geografiya, grammatika kabi fanlar arab va fors tillarida yangi darsliklar asosida o‘qitila boshlagan.

“Usuli Jadid” maktablarini tashkil etish masalalari o‘sha davrning ijtimoiy va madaniy kontekstida o‘ziga xos o‘zgarishlarni keltirib chiqargan. Jadidlarning yangi maktablar orqali amalga oshirgan ta’lim islohotlari Turkiston jamiyatida milliy va madaniy uyg‘onish jarayoniga zamin yaratdi. “Usuli Jadid” maktablarining ijobiy ta’siri shundaki, ular o‘quvchilarga zamonaviy fanlarni o‘rgatish va ularga tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini singdirishga intilgan. Bu maktablar bolalarning faqat diniy bilimlarini emas, balki dunyoviy bilimlarni ham mukammal egallashlarini ta’minlashni maqsad qilgan. Bundan tashqari, jadid maktablari qiz bolalarning ham ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlab, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga hissa qo‘shgan.

XULOSA

Turkiston jadidchilik harakati o'z davrida milliy uyg'onishning eng muhim harakatlaridan biri bo'lib, xalqni ma'rifat, tafakkur va mustaqil fikrlash sari yetaklagan. Jadidlar millat kelajagini yosh avlodning ilmli, erkin va vatanparvar bo'lishida ko'rdilar. Shu bois ular yoshlarni bilim olishga, tafakkurini kengaytirishga va millat ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatishga undadilar. Eski tuzum davrida xalq o'z tarixidan bexabar, buyuk ajdodlar - Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi siymolarning merosi esa e'tiborsiz qoldirilgan yoki hatto qoralanib kelgan edi. Shu sababdan jadidlar xalq ongida tarixiy xotirani tiklash, milliy iftixorni uyg'otish, ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklashga harakat qildilar. Ular xalqni savodsizlik va qaramlik zanjiridan ozod etish, ilm va ma'rifat orqali ozodlikka eltish g'oyasini ilgari surdilar. Jadidlarning ta'lim, matbuot, adabiyot, teatr, madaniyat sohalaridagi faoliyati natijasida Turkiston jamiyatida yangicha dunyoqarash, zamonaviy tafakkur va milliy o'zlikni anglash jarayoni boshlangan.

Demak, jadidchilik harakati nafaqat ta'lim islohoti, balki millatni uyg'otgan, o'zligini tanitgan va ozodlik g'oyasini xalq qalbiga singdirgan tarixiy hodisa sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimov B. Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914; Qrim). T., 1992.
<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/ismoilbek-gasprinskiy-1851-1914-qrim>
2. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. T.: Universitet, 2006.
3. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998;
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. - Toshkent "Ma'naviyat" 1998. - B. 33.
5. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917). -Ташкент: Фан, 1997. - С. 167.
6. Салижанова Г.Ф. Учебно-просветительские очаги в Туркестане, их общественное значение (конец XIX - начало XX вв.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Ташкент, 1998. С. 22.